

## **CHET TILLARINI O'QITISHDA ONLAYN TA'LIMNING YUTUQ VA MUAMMOLARI .**

*Muallif: Ergashev Alisher Farxod o'g'li*

*Ilmiy rahbar:Xodjiyeva Ra'no Akmalovna*

*O'zDJTU Ingliz tili №3 fakulteti, 1 -bosqich, 2104-guruh talabasi*

**Annotatsiya.** Quyidagi maqolada chet tillarni o'qitishda onlayn ta'loring yutuq va kamchiliklari hamda yaqin vaqt davomida mamlakatimiz ta'lim tizimida yaqqol darajada ijobiy o'zgarishlar ro'y berayotganligi aks etgan. Ta'lim tizimimizning turli shakllari qatori hozirgi globallashuv davrida masofadan o'qitish keng foydalanish ta'limga qaratilgan eng samarali islohotlardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Maqolamiz orqali onlayn ta'loring yutuq va muammolari haqida so'z yuritamiz.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida zamonaviy o'qitish tizimini modernizatsiya qilish hamda chet tilini o'rgatish va o'rganish asosiy masala sifatida qo'yilishi bejiz emas. Vaholanki masofadan o'qitish-bu ta'lim jarayonidagi bosh islohot hisoblanadi. Masofadan o'qitish uslubi bu sirtqi o'qishning yangi shaklidir. Masofadan o'qitish bu mustaqil o'qishdir. Mustaqil o'qish insonning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa va bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masofadan o'qitish davomida o'quvchi o'ziga qulay vaqtida va hattoki ishdan ajralmagan holda o'qishi mumkin. Aynan shu jihatdan tufayli bu uslub dunyoda hozirgi kunda keng tarqalgan. Juda ko'p yirik korxona mutaxassislari o'z malakasini rivojlantirish yoki o'zgartirish uchun shu uslubdan foydalanib, yiliga millionlab dollarlar mablag'laribi tejamoqdalar. Masofaviy ta'lim (MT) - bu ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarining bir biri bilan masofa yoki vaqt orqali ajratilganligi sababli, informatsion texnologiyalardan fodalanilgan ta'lim turidir.

Zamonaviy texnologiyalardan to'g'ri foydalanish hamda xorijiy tillarni mukammal o'rganish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish choratadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qaroriga muvofiq, shuningdek, xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha tashkiliy choratadbirlarni samarali amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarorlari tayanch vazifasini o'tamoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

**Masofaviy ta'loring yutuqlari va kamchiliklari.** Masofaviy ta'loring metodik, iqtisodiy, sotsial yutuqlar va afzallikkari, hamda kamchilik va salbiy tomonlari mavjud.

**Umumiyligida yutuq va afzal tomonlariga quyidagilarni kiritish mumkin:**

- Dars jadvalni qulayligi. O'quvchi o'ziga ma'qul bo'lgan vaqtida o'quv jarayoniga qatnashishi mumkin.

- Qulay foydalanish manzillari. O'quvchi internet kafe, uy, mehmonxona, ish joyida va boshqa joylardan o'quv jarayoniga qatnashishi mumkin.
- Qulay o'qish tempi. Ta'lim, o'quvchilar yangi bilimlarni tushunish tempida o'tkaziladi.
- Ma'lumotlar bazasini to'planishi. Oldingi o'qigan talabalar bilimlarini to'plash va undan foydalanish imkoniyati(elektron kutubxonalardan foydalanish)
- Ko'rgazmali qulayliklari. Multimediya vositalaridan mukammal foydalanish imkoniyati.
- Malakali(zamonaviy ta'limga ega) o'qituvchilarni tanlab, ta'lim jarayoniga jalg qilish.
- Ijtimoiy guruhlarga ajratish yo'qligi. Masofa viy ta'lim kursida ikkinchi oliy yoki qo'shimcha ma'lumot oluvchilar, malaka oshirish va qayta tayyorgarlik o'tash istagida bo'lganlar; ikkinchi paralel ma'lumot olishni xohlagan talabalar; markazdan uzoqda, kam o'zlashtirilgan mintaqalar aholisi; jismoniy nuqsonlari bo'lgan shaxslar; armiya xizmatida bo'lgan shaxslar; erkin ko'chib yurishi cheklangan shaxslar; va boshqalar qatnashishi mumkin.Yosh cheklanishlari yo'qligi. O'qishga jalg qilinuvchilarning yosh cheklanishlarini istisno qilinadi.

Ammo masofaviy ta'limda salbiy hamda noafzallik tomonlari ham mavjudligi haqida to'xtalib o'tish lozim. Ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- Elektron holatdagi ta'lim va muloqot jarayonlarga ishonchsizlik. Ushbu sababdan talabalar asosan virtual holatdagi ta'lim turida emas, balki oddiy (kunduzgi va sirtqi) ta'lim turlarida o'qish istagida bo'lishadi.
- Davlat masofaviy ta'lim standartlari yo'qligi va natijada davlat nusxasidagi diplom berilmasligi. Shu sababdan ko'pgina masofaviy ta'lim kurslari bitiruvchilariga faqat ushbu kursni bitirganligi haqida sertifikat yoki guvohnomalar berishadi.
- Virtual muhit va texnika ta'minot bilan bog'liqligi. Masofaviy ta'lim internet borligi, undan foydalanish narxi, tezligi va servislar mavjudligiga, maxsus kommunikatsion texnikalar mavjudligi va ular ishlashiga taalluqli.

Masofaviy ta'limning asosiy texnologiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

**INTERAKTIV texnologiyalar:** Internet masofaviy ta'lim portali.Video va audio konferentsiyalar.Elektron pochta orqali ta'lim.Internet orqali mustaqil ta'lim olish.Uzoqdan boshqarishsistemalar.Onlayn simulyator va o'quv dasturlar.Test topshirish sistemalari.

**INTERAKTIV bo'limgan texnologiyalar:** Video, audio va bosmaga chiqarilgan materiallar.Tevlizion va radio ko'rsatuvlar.Disklarda joylashgan dasturlar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, O’zbekiston boshqa MDH davlatlariga o‘xshab o‘zining ta’lim sohasini jahon standarlariga olib kelishda ko‘p harakatlar qilmoqda. Mamlakatimizning maydoni kattaligi va markazdan geografik uzoqlashgan regionlar mavjudligi elektron ta’limni rivojlanishiga asosiy sabab bo‘lib, unga katta ahamiyat berilishiga olib kelmoqda. Hozirgi moliyaviy tanqislik davrida, ta’limning bu turidan keng miqyosda foydalanish lozim. Mazkur ta’lim turini rivojlantirish bilan bog’liq ayrim muammolar sodir bo‘lishi tabiiy holdir. Bular asosan moliyaviy, texnikaviy ta’minot va shu sohada malakali o‘qituvchilar hamda pedagog kadrlarning yetishmasligi, ammo biz shu muammolarni imkoniyat darajasida hal qilish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ko‘rilmoxda chunki, O’zbekiston sharoitida masofaviy ta’limni tashkil qilinish katta samara berishi muqarrardir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati .**

- 1.** [https://tami.uz/matnga\\_qarang.php?id=232](https://tami.uz/matnga_qarang.php?id=232). Mengliyev Sh. Masofaviy o‘qitish tizimi.
- 2.** <https://goaravetisyan.ru/uz/ispolzovanie-innovacionnyh-tehnologii-na-urokah-angliiskogo-yazyka/>
- 3.** <https://uza.uz/oz/posts/xorijiy-tillarni-o-qitish-takomillashmoqda-16-05-2017>
- 4.** Paluanova, X. D. Derivation-semantic principles of ecological terms in English, Uzbek, Russian and Karakalpak languages. DSc. Diss. dissertation. Tashkent, 2016.